

SURXONDARYO VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI

(2021- yil yanvar – dekabr oylari uchun, dastlabki ma'lumotlar)

Surxondaryo viloyatining doimiy aholisi soni 2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra **2743,2** ming kishini tashkil etib, yil boshidan **62,4** ming kishiga yoki **2,3** % ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **993,3** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **36,2** %), qishloq aholisi soni **1749,9** ming kishi (**63,8** %) ni tashkil etdi.

2022-yil 1- yanvar holatiga ko'ra doimiy aholi soni 2743,2 ming kishiga yetdi.



Tirik tug'ilganlar soni
81,0 ming kishi



O'lganlar soni
12,8 ming kishi



Shahar joylarda 993,3 ming kishi



Qishloq joylarda 1749,9 ming kishi


Nikohlar soni
26,5 ming birlik



Ajrimlar soni
2,3
ming birlik



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, ming kishi)



Viloyat hududlari kesimidagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2022- yil 1- yanvar holatiga eng ko'p aholi soni Denov tumanida 400,0 ming kishi (viloyat aholisi sonidagi ulushi (14,6 %) va Qumqo'rg'on tumanida 243,5 ming kishini (8,9 %), Jarqo'rg'on tumanida 226,9 ming kishi (8,3 %) va aksincha eng kam aholi soni Bandixon tumanida 78,7 ming kishini (2,9 %) tashkil etdi.


Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati yil boshiga nisbatan soni Denov tumanida 7,8 ming kishi (2,0 %) va Qumqo'rg'on tumanida 4,9 ming kishini (2,1 %), Jarqo'rg'on tumanida 4,8 ming kishi (2,2 %) va aksincha eng kam aholi soni Bandixon tumanida 2,2 ming kishini (2,9 %) tashkil etdi.

Tug'ilish. 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida 81,0 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 29,9 promilleni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 1,8 promillega oshgan (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida 28,1 promille bo'lgan).

**Surxondaryo viloyati bo'yicha tug'ilganlar sonining
o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi, kishi
(2021- yil yanvar-dekabr)**

	2020- yil	2021- yil*	O'sish sur'ati %
Surxondaryo viloyati	74 658	80 975	108,5
Termiz sh.	5530	5581	100,9
tumanlar:			
Oltinsoy	5142	5528	107,5
Angor	3515	3877	110,3
Bandixon	2399	2308	96,2
Boysun	3025	3281	108,5
Muzrabot	3795	4064	107,1
Denov	11075	12399	112,0
Jarqo'rg'on	6357	6930	109,0
Qumqo'rg'on	6671	7015	105,2
Qiziriq	3324	3788	114,0
Sariosiyo	5817	6184	106,3
Termiz	1930	2317	120,1
Uzun	4790	5114	106,8
Sherobod	5136	5856	114,0
Sho'rchi	6152	6733	109,4

Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti (2021- yil yanvar-dekabr)




■ tug‘ilganlar soni ■ tug‘ilish koeffitsiyenti

Vafot etganlar

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida 12,8 mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga o‘lim koeffitsiyenti 4,7 promilleni tashkil etdi.




Asosiy o'lim sabablari bo'yicha yanvar-dekabr



2021- yilning yanvar-dekabr oylarida 0,7 mingta 1 yoshgacha go'daklar o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 tirik tug'ilganga go'daklar o'lim koeffitsiyenti 9,6 promilleni tashkil etdi.

Vafot etganlar soni, ming kishi

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha 1 yoshgacha vafot etganlar



Tabiiy o‘sinh. 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy o‘shishi 68,2 ming kishini (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida 62,7 ming kishi) tashkil etdi.



**Surxondaryo viloyati bo‘yicha nikoh tuzganlar sonining
o‘tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi, kishi**
(2021- yil yanvar-dekabr)



	2020- yil	2021- yil*	O‘sinh sur’ati %
Surxondaryo viloyati	24 790	26 505	106,9
Termiz sh.	1374	1621	118,0
tumanlar:			
Oltinsoy	1592	1783	112,0
Angor	1308	1286	98,3
Bandixon	672	749	111,5
Boysun	959	1076	112,2
Muzrabot	1381	1355	98,1
Denov	3508	3774	107,6
Jarqo‘rg‘on	2282	2447	107,2
Qumqo‘rg‘on	2268	2482	109,4
Qiziriq	1165	1141	97,9
Sariosiyo	1896	2022	106,6
Termiz	767	895	116,7
Uzun	1669	1755	105,2
Sherobod	1919	1903	99,2
Sho'rchi	2030	2216	109,2

Aholi migratsiyasi (kishi)

2021- yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 11,9 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 17,7 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini minus 5,8 ming kishi bo'lib, 2020- yilning mos davrida minus 11,1 ming kishi bo'lgan.

	2020- yil yanvar-dekabr	2021- yil yanvar-dekabr
Ko'chib kelganlar	8 456	11 911
Ko'chib ketganlar	19 518	17 704
Migratsiya saldosini	-11 062	-5 793

2020- yil
yanvar-dekabr



2021- yil
yanvar-dekabr



➔ **Ko'chib ketganlar**
 ➔ **Ko'chib kelganlar**
 ➔ **Migratsiya saldosini**

Hududlar kesimida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni (2021- yil yanvar-dekabr uchun, kishi)

	Ko'chib kelganlar soni	Ko'chib ketganlar soni	Migratsiya saldosı
Surxondaryo viloyati	11 911	17 704	-5 793
Termiz sh.	5298	2961	2 337
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	20	884	-864
Angor	298	784	-486
Bandixon	599	481	118
Boysun	322	884	-562
Muzrabot	515	973	-458
Denov	841	1750	-909
Jarqo'rg'on	343	1250	-907
Qumqo'rg'on	405	1443	-1 038
Qiziriq	387	941	-554
Sariosiyo	425	1172	-747
Termiz	917	1161	-244
Uzun	406	1066	-660
Sherobod	563	919	-356
Sho'rchi	572	1035	-463

Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi
Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi
tel: (76) 225-65-60